

**MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA MEHNAT
TARBIYASINING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI VA UNI
TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI**

Sanginova Gulnoza Baxodirovna¹

¹ *Qo'qon universiteti Maktabgacha ta'lif kafedrasi o'qituvchisi
xusamr@mail.ru*

**MAQOLA
MALUMOTI**

MAQOLA TARIXI:

Received: 28.06.2025

Revised: 29.06.2025

Accepted: 30.06.2025

KALIT SO'ZLAR:

*mehnat tarbiyasi,
maktabgacha ta'lif,
mehnat faoliyati,
tarbiyaviy jarayon,
metodik yondashuvlar,
bola rivoji.*

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada maktabgacha katta yoshdagi bolalarda mehnat tarbiyasining shakllanish jarayoni, uning psixologik va pedagogik xususiyatlari hamda samaradorligini oshirish yo'llari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, amaliy tajriba asosida mehnat tarbiyasini takomillashtirishning metodik yondashuvlari tahlil qilinadi.

KIRISH. Maktabgacha ta'lif — bolani shaxs sifatida shakllantirishda muhim bosqich hisoblanadi. Shu davrdagi tarbiya va ta'lif jarayonlari bolaning butun hayoti davomida davom etadigan qadriyatlar, qiziqishlari va ko'nikmalarini belgilaydi. Ayniqsa, mehnat tarbiyasi bolani mustaqillikka, mas'uliyatga, ijtimoiy munosabatlarga o'rgatishda muhim vositatadir.

Mehnat tarbiyasining ahamiyati shundaki, mehnat tarbiyasi bolaning hayotga tayyorlanishida asosiy o'rinn tutadi. U orqali bola jismoniy va aqliy faollikni uyg'unlashtirish, mehnatga ijobjiy munosabatni shakllantirish, atrofdagilarning mehnatini qadrlashni o'rganadi. Maktabgacha katta yosh (5–6 yosh) — bu yoshdagi bolalar atrof-muhitdagi voqe-a-hodisalarini anglashga, faol harakat qilishga tayyor bo'ladi. Shunday

sharoitda mehnat tarbiyasi orqali ularga foydali faoliyatlar taklif etish maqsadga muvofiqdir.

Maktabgacha katta yoshdagি bolalarda mehnat tarbiyasini tashkil etishda quyidagi xususiyatlar hisobga olinadi:

- bola o‘z faoliyati natijasini ko‘ra oladi, qiziqish uyg‘onadi;
- nega bu ish muhim, qanday foyda beradi degan savollarga javob izlaydi;
- mehnat ko‘nikmalari muntazam mashq orqali shakllanadi;
- mehnat faoliyati elementlari ko‘pincha o‘yin shaklida tashkil etiladi;
- tarbiyachi yoki ota-onaning bahosi bolaning rag‘batini oshiradi.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida mehnat tarbiyasini takomillashtirish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilishi mumkin:

1. **Didaktik o‘yinlar orqali** – mehnat harakatlari elementlari o‘yinga integratsiya qilinadi, masalan, “Uy tozalaymiz”, “Meva yig‘amiz” kabi rolli o‘yinlar.
2. **Amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish** – bolalarning yoshiga mos mehnat vazifalari beriladi: gul parvarishi, idish yuvishda yordam, tozalash ishlari.
3. **Ko‘rgazmali metodlardan foydalanish** – mehnat jarayoni bosqichlarini rasm, video yoki bevosita kuzatish orqali tushuntirish.
4. **Ota-onalar bilan hamkorlik** – oilada ham mehnat tarbiyasi davom ettiriladi. Bu esa bola uchun ijtimoiy tajribaning uzluksiz bo‘lishini ta’minlaydi.
5. **Motivatsiyani oshirish** – mukofotlash, maqtov, natijani ko‘rsatish orqali bola mehnatga qiziqtiriladi.

Har bir bola Maktabgacha ta’lim yoshidan boshlab mehnatda ishtirok etishi zarur. Bolalar bog‘chasida, oilada bajariladigan uncha murakkab bo‘lmagan har bir topshiriq uning kundalik vazifasiga aylanishi kerak. Bola mehnatning ahamiyati va mohiyatini tushunib yetishi uchun pedagog kattalarning mehnati, bolalarning o‘zлari bajaradigan mehnat turlarini kuzatish yuzasidan ekskursiyalar uyushtiradi. Bolalar quruvchilarning mehnatini kuzatishyapti deylik. Qurilish maydonchasiga katta-katta bloklar keltirilib, ular ko‘tarma kran bilan tushiriladi. Keyin bolalar g‘isht teruvchilar, duradgorlar, suvoqchilar, tom yopuvchilar, bo‘yoqchilar mehnatini kuzatadilar. Bolalarni qurilish bilan tanishtirish davomida bilib olgan barcha tasavvur va tushunchalari, ularning ko‘zi oldida ajoyib bino bunyod etgan kishilar mehnatining go‘zalligi namoyon bo‘ladi. Tarbiyachi bolalar diqqatini chinni buyumlarga gul soluvchi kishilar mehnatiga jalb etadi. Bolalar tarbiyachi bilan birgalikda ularning mohirona chizgan rasmlari natijasida chinni idishlarning har xil jilo

berib turlanishidan zavqlanib, “Ularning qo‘llari gul ekan”, deydilar. Bularning barchasi bolalarda kishilar mehnatiga muhabbat uyg‘otadi.

Pedagog bolalarni mehnatning moddiy boylik keltiruvchi tomonini ham, estetik tomonini ham ko‘ra bilishga o‘rgatadi. Bahor kunlarining birida tarbiyachi bolalarni daraxtlar gullab turgan boqqa olib kiradi. Gulsafsar va piyongul bilan o‘ralgan yo‘lkalarga qum sepilgan, daraxtlarning tanasi bog‘bonlar tomonidan ohak bilan oqlangan. Tepada esa gullab turgan o‘rik, gilos, olma, olcha, shaftoli, gullarning atrofida asalarilar guvillashib uchib yuribdi. Bularning hammasi bolalarda ajoyib zavqli kechinmalar uyg‘otadi.

Mehnat bolalarning jismoniy rivojlanishida zarur shartlardan biri hisoblanadi. Mehnatda bola o‘zining ishlash, harakat qilish ehtiyojini qondiradi, harakatlarning aniq, uyg‘un bo‘lishini ta’minlaydi. Mehnat jarayonida bola organizmining umumiyligi hayotiy faoliyati, uning chidamliligi ortadi.

Bolalarning turli xil mehnat jarayonlarida ishtirok etishlari, kattalar mehnati bilan tanishishlari ularning tevarak-atrofdagi hayot haqida, kishilarning o‘zaro munosabatlari to‘g‘risida, narsalar va ularning xususiyatlari, materiallarga ishlov berish usullari haqida, qurilmalar va asboblar to‘g‘risida muayyan tasavvurlarga ega bo‘lishlariga yordam beradi. Mehnat bolalardan diqqat, o‘tkir zehnlilik, topqirlilik, bilib olgan malaka va ko‘nikmalarini amaliyotda qo‘llay bilish, ijodkorlik qobiliyatlarini egallashni talab etadi.

Mehnat jarayonida bolalar ayrim ish turlarini (bir varaq qog‘ozni buklash, kerakli uzunlikni o‘lhash, andozaga qarab shaklni qirqib olish kabi harakatlarni) anglatuvchi bir qancha tushuncha va atamalardan foydalanishga, bajarilgan ishdagi izchillikni so‘zlab berishga to‘g‘ri keladi. Bular bola nutqini yangi so‘zlar bilan boyitadi, uning mantiqiy bog‘liq ravishda grammatik jihatdan to‘g‘ri shakllanishiga imkon beradi. Bolalarni eng oddiy mehnat qurollari materiallarga ishlov berish usullari bilan tanishtirish kerak. MTTdagi mehnat ularni maktabdagisi politexnik ta’limga tayyorlaydi. Mehnatning axloqiy qimmati uning jamiyat uchun qanchalik ahamiyatga ega ekanligi bilan belgilanadi. Mehnat har bir bolani o‘z mehnatining ijtimoiy ahamiyatini tushunib yetishga, uning jamiyat hayotiga kirib borishiga, o‘zini shu jamiyatning a‘zosi deb his etishiga imkon yaratadi.

Har bir bola oilada, bolalar mehnatida o‘z ulushi borligini his eta bilishi lozim. Ishning shu tarzda tashkil etilishi bolalarda jamoachilik va intizomlilikni, burch hissini tarbiyalaydi. Shuning uchun bolalarni jamoa mehnatida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Mehnatning bolalarni aqliy tomondan rivojlantirishdagi ahamiyati shundaki, mehnat jarayonida ular borliqni faol anglay boshlaydilar, dunyonи materialistik idrok etish

imkoniyati yaratiladi. Maktabgacha yoshdan boshlab bolalarga mehnat tarbiyasi berish ularni estetik va jismoniy jihatdan ham rivojlantiradi.¹¹⁵

“Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda mehnat tarbiyasining shakllanish xususiyatlari va uni takomillashtirish yo‘llari” mavzusiga **amaliy tajriba asosida mehnat tarbiyasini takomillashtirishning metodik yondashuvlari** quyidagicha asoslanadi. Bu yondashuvlar tajriba-sinov asosida pedagogik faoliyatda qo‘llanishi va natijadorlik tahlili orqali tekshirilishi mumkin.

Bu yondashuvga ko‘ra, mehnat tarbiyasi bolalarda oddiydan murakkabga qarab bosqichma-bosqich shakllantiriladi:

1-bosqich - Mehnatga qiziqishni uyg‘otish: suhbatlar, ertaklar, rasm va video namoyishlari.

2-bosqich - Oddiy mehnat faoliyatlarida ishtirok: gullarni sug‘orish, o‘yinchoqlarni yig‘ish.

3-bosqich - Mustaqil mehnat topshiriqlari berish: stolni tayyorlash, tozalash.

4-bosqich - Mehnat faoliyatini baholash, rag‘batlantirish: natija haqida suhbat, maqtov, baho berish. *Bunda har bir bosqichda bolalarning ishtiroki, rag‘batsiz yoki rag‘bat bilan bajarilishi solishtiriladi.*

Mehnat elementlarini **didaktik o‘yinlar, rolli o‘yinlar va teatrlashtirilgan mashg‘ulotlarga** qo‘shish orqali bolalarda mehnatga nisbatan ijobjiy munosabat shakllanadi: “Do‘stimiz Bobo bog‘bon bilan ishlaymiz”, “Tozalik kuni” ssenariylari, “Gul ekamiz” rolli mashg‘uloti. Bunda o‘yinli mehnat faoliyati ishtiyoq bilan bajarilishi va mustahkam esda qolishi tahlil qilinadi.

Mehnat tarbiyasi boshqa fan va faoliyat turlari bilan integratsiyalashgan holda olib boriladi. Masalan: **Matematikada** “Nechta laganda bor?”, “Nechta sochiq yig‘ildi?” kabi sanash, **til o‘rganishda** “Nimani tozaladik?”, “Kim nima qildi?” – og‘zaki nutqni rivojlantirish, **tasviriy san’atda** “Mehnat qilayotgan odamlar” mavzusida rasm chizish.

Bunda mehnat faoliyati bolalarning boshqa kompetensiyalariga qanday ta’sir qilgani kuzatiladi.

Ko‘rgazmali qurollar, rasmlar, video lavhalar orqali mehnat faoliyatini tasavvur qilish osonlashadi. Masalan: “Uy tozalash tartibi” bo‘yicha rasmiplakatlar, “Bog‘da ishlash” videolar, tayyor mahsulot (gul, o‘yinchoq) namunasi.

¹¹⁵ Azizova Ziroatxon Baxodirovna, Burxonova Dilruxsor, Botirova Shaxlo. (2024). MAK TABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MEHNATNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11193767>

Bunda multimedia vositalar ishtiyoyq va tushunish darajasiga qanday ta'sir qilgani o'r ganiladi.

Bolalar kichik guruhlarda mehnat qilishni o'r ganadi. Bu orqali:

- jamoaviy ishga o'r ganadi;
- vaqt ni tejash, vazifani bo'lishni tushunadi;
- bir-biriga yordam berish hislari kuchayadi.

Bunda jamoaviy mehnatdagi faollik, ijtimoiy ko'nikmalar va natijaning sifati tahlil qilinadi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda mehnat tarbiyasini shakllantirish nafaqat ularni foydali mehnat faoliyatiga jalb etish, balki ularning ijtimoiy, psixologik va intellektual rivojiga ham ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayonni ilmiy asoslangan, metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish orqali samaradorlikka erishish mumkin. Tarbiyachi va ota-onalarning hamkorlikdagi ishlari esa bu jarayonni uzlusiz va samarali qilishda asosiy omil hisoblanadi.

Mehnat tarbiyasida har bir bola individual yondashuvga muhtoj – ularning qiziqishlari, holati va ko'nikmalari hisobga olinishi zarur.

Bolalarning mehnat faoliyatiga bo'lgan munosabati muntazam kuzatilib, ularga mos metodlar tanlanmog'i lozim.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azizova Ziroatxon Baxodirovna, Burxonova Dilruxsor, Botirova Shaxlo. (2024). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MEHNATNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11193767>
2. Gulnoza, S. (2024). MAKTABGACHA TA'LIMDA MEHNAT TARBIYASI: ZAMONAVIY TALABLAR VA ISTIQBOLLAR. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 13, 215–219. <https://doi.org/10.54613/ku.v13i.1059>
3. Isoqova G.U. (2023). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARIDA MEHNAT TARBIYASINI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH. Экономика и социум, (12 (115)-1), 316-319.
4. Sanginova, G. (2024). BOLALARDA MEHNAT TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH. *University Research Base*, 116–119. Retrieved from <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/479>
5. Z.Q. Qoldoshova, & Sh.H. Haydarova (2022). MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASIDA MEHNAT TARBIYASINING MAZMUNI. Ученый XXI века, (3 (84)), 54-55.